ALISHER NAVOIY DOSTONLARINING O'QITISH METODIKASI

Mirzayeva Norayhon
TerDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va so'z san'ati dahosi Alisher Navoiy dostonlarini ta'lim jarayonida o'qitish metodikasi masalalari tahlil qilinadi. Maqolada Navoiy dostonlarining badiiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ahamiyati yoritilib, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning samarali usul va vositalari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, dostonlarni o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va badiiy tafakkurini rivojlantirish, matn tahlili orqali adabiy-estetik didni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida Navoiy dostonlarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirishi hamda yosh avlodning milliy va ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, doston, o'qitish metodikasi, adabiyot ta'limi, interfaol metodlar, badiiy tahlil, pedagogik texnologiya, ma'naviy tarbiya, badiiy tafakkur, matn tahlili, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы методики преподавания дастанов великого мыслителя и гения художественного слова Алишер Навои в образовательном процессе. Освещаются художественно-эстетическое, духовно-просветительское и воспитательное значение дастанов Навои, а также показываются эффективные методы и средства их преподавания на основе современных педагогических технологий. Особое внимание уделяется использованию интерактивных методов в изучении дастанов, развитию самостоятельного мышления и художественного

восприятия учащихся, формированию литературно-эстетического вкуса посредством анализа текста. В результате исследования обосновывается, что инновационные подходы в преподавании дастанов Навои способствуют повышению эффективности образования и воспитанию молодого поколения в духе уважения к национальным и духовным ценностям.

Ключевые слова: Алишер Навои, дастан, методика преподавания, литературное образование, интерактивные методы, художественный анализ, педагогическая технология, духовное воспитание, художественное мышление, анализ текста, инновационный подход.

Abstract. This article analyzes the issues of teaching methodology of the epics of the great thinker and master of artistic expression Alisher Navoiy in the educational process. The study highlights the artistic-aesthetic, spiritual-educational, and moral significance of Navoi's epics and demonstrates effective methods and tools for teaching them through modern pedagogical technologies. Particular attention is paid to the use of interactive methods in studying the epics, the development of students' independent thinking and artistic perception, and the formation of literary-aesthetic taste through text analysis. The research substantiates that innovative approaches in teaching Navoi's epics increase educational effectiveness and contribute to educating the younger generation in the spirit of respect for national and spiritual values.

Keywords: Alisher Navoiy, epic, teaching methodology, literary education, interactive methods, artistic analysis, pedagogical technology, spiritual education, artistic thinking, text analysis, innovative approach.

Hazrat Navoiyning ijodiy merosi benihoya ulkan xazina, undan bahramand bo'lishni istagan har bir inson, o'ziga kerakli tushuncha yoki ozuqani olarkan,

g‘avvos suvga sho‘ng‘ib, qimmatbaho marvaridni topgandek zavqlanadi. Shunning uchun bo‘lsa kerakki, biz bu ma’naviy boylikka bot-bot murojaat qilaveramiz. Biyron tilchalari bilan “G‘urbatda g‘arib…”ni aytgan bolakay, yoki “Orazin yopqoch…”, “Topmadim”ni maromiga yetkazib o‘qiyotgan o‘g‘il-qizga qarab turib, bobokalonimiz ijodining sirli olami maktab o‘quvchilarini ham sehrlab qo‘ygani, yosh avlodning buyuk siymoga bo‘lgan cheksiz hurmatini his qilamiz.

So‘z badiiyati qonun-qoidalari, nodir asarlar muhokamasi va talqinini o‘zida jamlagan adabiyot saboqlarini Navoiy ijodisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-11-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan adabiyot dasrliklarining har birida Navoiy ijodini o‘rganishga keng o‘rin berilgan. Mashg‘ulotlarda shoirning betakror lirikasidan tortib, epik asarlaridan berilgan parchalar matni ustida qizg‘in bahs-munozara, teran mulohazalar, o‘zgacha tafakkur o‘z ifodasini topadi.

Buni qarangki, murakkab grammatik qoidalar, izohlardan voz kechib, tilimizning jozibasini o‘zida aks ettirgan so‘zlar ma`nosini anglash va ulardan zavqlanish, nutqda to‘g‘ri qo‘llash, o‘z qarashlari asosida mustaqil matn yaratish, erkin muloqotga kirishishni pirovard natijaga aylanishini ko‘zlayotgan bugungi ona tili ta`limi darslarida ham Navoiy ijodining go‘zal namunalarini tahlil qilamiz. Fikrimizni umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ona tili darsligi tasdiqlaydi. Darslikda benazir ijodkorning “Muhokamat ul-lug‘otayn”, “Lison ut-tayr”, “Majolis un-nafois” kabi asarlaridan ma`lum bir parchalar keltirilgan bo‘lib, mustahkamlash darsi sifatida ajratilgan “Matn va lug‘at bilan ishlash” mashg‘ulotlarida mumtoz matnning ushbu mazmundor namunalari tahlilga olinadi.

"Lison ut-tayr"ning "Talab vodiysi" qismidan keltirilgan matnni o'rganish biroz murakkab jarayonni yuzaga keltiradi:

Har dam anga yuz **malomat** yuzlanur,

Har nafas ming sa`b **holat** yuzlanur…

Ranj-u **ko'shish** sanchibon jismingga **nesh,**

Dardi noyob aylabon joningni **resh…**

O'quvchiga matn mohiyatini tushunarli tarzda yetkazish o'qituvchidan mashg'ulot uchun qiziqarli metodlarni tanlashni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quvchi yoshiga mos tarzda va kerakli o'rinda qo'llash ta`lim samaradorligiga ijobiy ta`sir ko'rsatadi. Matn ustida ishlash undagi lug'at so'zlarni o'rganishdan boshlanadi. Shu o'rinda **"SMS-xabarnoma"** usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Darsda o'rganilishi lozim bo'lgan so'zlar sinf telegramm guruhiga xabarnoma shaklida joylashtiriladi. Bilamizki, kitobni o'qishni xohlamagan bola ham, telegramdagi yangilikni kuzatadi:

malomat - malol kelish, og'rinish

afgor – xor bo'lish, ezg'in holatga tushish **sa'b** – qiyin, og'ir

mi'od – muddat, ijro vaqti **ko'shish** – sa'y-harakat **nesh** – nish, tig'

resh – yara, jarohat

solik – komillik yo'lidagi kishi

takbiri fano – o'tkinchi dunyo uchun haqni ulug'lash

Kutilgan natija: o'quvchilarning barchasi yangi so'zlarni o'qiydi, imlosini o'rganadi, keyingi darsda erkin qo'llaydi, xatosiz yozadi. Bu usul ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilsa, yanada ko'proq samara beradi.

"FSMU" interfaol usuli ham matn ustida ishlash davomida o'rganilganlarni qayta hikoya qilish va asoslash imkonini beradi. Shu o'rinda sinf kichik guruhlarga

bo'linadi, o'qituvchi "FSMU" texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozni tarqatadi.

F- fikringizni bayon eting

S- fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M- ko'rsatilgan sababingizni asoslovchi misol keltiring

U- fikringizni umumlashtiring.

Vazifa: "Lison ut-tayr" asaridagi hikoyat mazmuni haqida so'zlang. F- hikoyatda majoziy tushuncha ifodasi namoyon bo'lmoqa.

S-bog'bon siymosi bugungi kunda bilimsizligi, uquvsizligi natijasida jamiyatga foydasi tegmay, aksincha ziyon yetkazayotgan insonlar tasviri aks etgan.

M- agar inson bilimni mukammal egallasa, uning orqasidan o'ziga daromad oladi, xalqqa ham foydasi tegadi. Kishi ilmsiz bo'lsa, qo'lidan bir foydali ish kelmaydi, oxiri qilgan xatolari o'ziga ham, atrofdagilarga ham ziyon yetkazadi. U- shunday bilim egallashimiz lozimki, kelajakda bilimsizlik hayotimizga daxl qilmasin.

Kutilgan natija: mushohadalar o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stiradi, erkin fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

"Ekspress – test" usuli darslikdagi 141-topshiriqni bajarishda qo'l keladi.

141-topshiriq. Matndan –ustunga olingan so'zlarning ma`nosini 2- ustundagi izohlar orasidan aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va yod oling.

1) shajar	a) meva
2) parkov	b) daraxt

3) farah	d) o'yish quroli
4) anborkashlig'	e) hazar qiluvchi
5) ahbob	f) egallagan, kirishgan
6) mujtanib	g) xas-xashaktashuvchilik
7) murtakib	h) saodat
	i) do'st

Yechim:1-b, 2-d, 3-h, 4-g, 5-i, 6-e, 7-f.

Kutilgan natija: bu usul egallagan bilimlarning amalda qo'llash imkonini beradi, o'quvchilar amaliy bajargan ishlarini xotiraga muhrlaydilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiya usullari yordamida o'rganilgan mumtoz matnlar o'quvchilar qiziqishini oshiradi, murakkab matnlarni samarali o'zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bashariyatning aql-idroki tarixni yaratuvchanlik, kashfiyotlar bilan boyitadi, tamaddunning yangi bosqichlarida yo'l ochib beradi. Bu borada buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos ekanligi, o'lmas falsafiy g'oyalari bilan kelgusi avlodlar, xalqlar, millatlar kamoloti uchun yana ko'p va xo'p xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. 3-tom. / E.Fozilov tahriri ostida / – Toshkent, 1985. – B.179

2. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. 8-sing ona tili darsligi. – Toshkent: Cho'lpon, 2019. Mashqlar ushbu darslikdan olingan.

3. Рабочая концепция одаренности/ Науч. ред. В.Д.Шадрикова. – М., 2002. – С.94.

4. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T., 2006. – Б.89.

5. G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1995. – B.164.

6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.

7. Zafariddin Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.